

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI  
MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI**

**"Himoyaga tavsiya etilsin"**  
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ prof. B. Eshov.  
“\_\_\_\_\_” 2019yil

**Nabiyev Umarali Abdullo o`g`lining**

“5111600 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun  
**«Tadbirkorlik faoliyatida yangi innovatsion texnologiyalarni joriy  
etishning huquqiy asoslari » mavzusida yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ **U.Nabiyev**  
Ilmiyrahbar: \_\_\_\_\_ dots.F.Qanoatova

**"Himoyaga tavsiya etildi"**  
Milliy g‘oya va ma’naviyat  
asoslari kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. F.Qanoatova.  
“\_\_\_\_\_” 2019yil

**Qarshi - 2019**

## M u n d a r i j a

KIRISH ..... 3

### I bob: TADBIRKORLIK SUB`EKTLARINING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILINISHI

|   |    |
|---|----|
| 1.1 Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tashkil<br>etish tartibi ..... | 7  |
| 1.2 Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari va<br>ularning turlari .....     | 18 |

### II BOB: O'ZBEKİSTONDA XUSUSİY SEKTÖRNİNG RIVOJLANТИRISHNING AHAMIYATI

|   |    |
|---|----|
| 2.1. Xususiy mulk daxsizligining huquqiy kafolati va davlat<br>nazoratinng o`rnatilishi ..... | 30 |
| 2.2 Y akka tartibdagи tadbirkorlik va uning<br>imkoniyatlari .....                            | 46 |
| 2.3 Tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini boshqarishda<br>innovatsion yondashuv .....     | 50 |
| XULOSA .....  | 58 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....   | 61 |
| ILOVALAR .....  | 66 |

## KIRISH

Ma`lumki, biz yangi jamiyat qurish, demokratik huquqiy davlat tuzish, iqtisodiyotni bozor munosavatlariga o`tkazish maqsadida o`zimizga xos va mos yo`l tanlaganmiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar tadbirkorlar faoliyatini erkinlashtirish, ularga keng yo`l ochib bergan holda nazorat qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq-ravshan belgilab olishda va albatta, tadbirkorlik subyektlari huquqlarining himoyasini amalda ta'minlashda ko`rinmoqda. Bugun har birimiz tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatimiz ravnaqi, aholi farovonligini ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy hayotni barpo etishning muhim omili ekanligini chuqur his etmoqdamiz, tadbirkorlik faoliyati erkinligining davlat tomonidan to`liq kafolatlanganligi iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda muhim omil bo`lmoqda.

“Biz iqtisodiyotimizni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarga keng yo`l ochib berish siyosatini bundan keyin ham qat’iy davom ettiramiz. Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu sohani har tomonlama qo’llab-quvvatlash, uning oldida paydo bo‘ladigan to’siqlarni butunlay olib tashlash masalasi davlat rahbari sifatida mening doimiy e’tiborim va nazoratimda bo‘ladi”, — dedi SH.Mirziyoev.”<sup>1</sup>.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlarini orttirishda, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylantirishga erishish yo‘lida ko‘plab ishlar amalga oshirib kelinmoqda. “Tadbirkor boy bo‘lsa, davlat boy bo‘ladi. Buning uchun ishbilarmonlarga keng sharoit yaratib berishimiz lozim. Milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqimizning farovon turmushini ta’minlashda muhim o‘rin tutayotgan tadbirkorlikni qo’llab- quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biridir .

***Mavzuning dolzarbligi.*** O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, ular faoliyatini amalga oshirish, tugatishning qonunchilik asoslari, shuningdek,

---

<sup>1</sup> Mirziyoev SH.. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag`ishlangan tantanali tadbirda so`zlagan nutqi. - <https://sputniknews-uz.com/politics/2017>

tadbirkorlik va biznes munosabati ishtirokchilarining mulkka nisbatan huquqlari, tadbirkorlik (xo‘jalik) shartnomalari, boshqaribning o‘ziga xos xususiyatlari, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy himoya tizimi va javobgarlik asoslarini har tomonlama tahliliy o‘rganish dolzarb masalaridan bo‘lib qoladi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari:** Bozor munosabatlarini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy qonuniy asoslari yaratilishi, uni yanada takomillashib borayotganligi, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar, imtiyoz va preferensiyalar berilayotganligining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq o‘rganish hamda ularni tahlil qilishdir.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi;

- tadbirkorlik (biznes) huquqi alohida huquq sohasi ekanligini hamda uning predmeti va prinsiplarini asoslash;
- O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes qonunchiligining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;
- tadbirkorlik (biznes) subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solishning qonuniy asoslarini o‘rganish;
- xususiy mulk daxlsizligining huquqiy kafolati aniqlash;
- O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesning turlarini ko`rsatish;
- Tadbirkorlik va kichik biznes sub`ektlarini boshqarishning innovatsion metodlarini joriy etishning o‘ziga xosligini o‘rganish;
- Korporativ boshqarishning afzalliliklarini ko`rsatish.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi:** Tanlangan mavzu dolzarbligi va keng qamrovligi tufayli siyosatshunoslar, huquqshunoslar, faylasuflar va boshqa soha xodimlari e’tiborini o‘ziga jalb etib kelgan. Ayniqsa horijiy olimlarning

ishlari kop qirralidir, jumladan David P., M. Jennings , Genry R., Jemes Morgan va boshqalar. Mavzu yuzasidan o‘zbek olimlari ham tadqiqot olib borganlar<sup>1</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi** tadbirkorlik (biznes) huquqi alohida huquq sohasi ekanligini hamda uning predmeti va prinsiplarini asoslashda ko`rinadi, shuningdek, O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes qonunchiligining rivojlanish bosqichlari, tadbirkorlik (biznes) subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solishi, Tadbirkorlik va kichik biznes sub`ektlarini boshqarishning innovatsion metodlarini joriy etishning o`ziga xosligini o`rganilganligida namoyon bo`ladi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti va ob`ekti:** Oilada er va xotinning teng huquqliligi, huquq va majburiyatlarning vujudga kelishining qonuniy asoslari hamda tartibga solinishini o`rganish ishning ob`ektini tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me`yoriy hujjatlari predmeti vazifasini bajararadi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy-metodologik asoslari.** Ishning nazariy metodolgik asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik hamda Tadbirkorlik huquqi asoslari, SH.Mirziyoyev, I.Karimova va boshqalarning asarlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda umumilmiy metodlar, ya’ni analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash, noaniqlikdan aniqlik tomon borish kabi metodlar va tadqiqot usullaridan foydalanildi.

---

<sup>1</sup> yu.f.n., dots. X.T.Azizov, yu.f.d., prof. O.Oqyulov, yu.f.n., dots. F.H.Otaxonov, yu.f.n. S.B.Xolbaev, yu.f.n., dots. S.A.SHodieva, yu.f.n. SH.M.Masadikov, yu.f.n., dots. v.b. N.M.Qo’shaev, yu.f.n. N.K.Xattabov, M.A.Berdikulov, yu.f.n. S.B.Xolbaev, yu.f.n., dots. S.A.SHodieva, yu.f.n. SH.M.Masadikov, yu.f.n., dots. v.b. N.M.Qo’shaev, yu.f.n. N.K.Xattabov va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ish uchun mavzuga aloqador asarlar va matbuot materiallari manba bo‘lib xizmat qildi.

***Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.*** Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi tadbirkorlar faoliyatini erkinlashtirishda, ularga keng yo‘l ochib bergan holda nazorat qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq-ravshan belgilab olishda va tadbirkorlik subektlari huquqlarining himoyasini amalda ta’minlashi turli faktlar asosida Bitiruv malkaviy ishi sifatida o‘rganildi

Bitiruv malakaviy ish Qarshi Davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi qoshidagi “Yosh ma’naviyatchi” to‘garagida ma’ruza qilingan.

Shuningdek, BMIda keltirilgan ma’lumotlardan Huquqshunoslik fanlarini o‘qitishda, ilmiy seminar mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ta`minlashdan manfaatdor bo`lgan barcha mutaxassislar uchun foydali bo`ladi.

***Ishning hajmi va strukturasi.*** Bitiruv malakaviy ishi, kirish, tort paragrafni o`z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Malakaviy ishning hajmi, 67 sahifani tashkil etadi.

## **I bob: TADBIRKORLIK SUB`EKTLARINING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILINISHI**

### **1.1. Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etilishining huquqiy holati**

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tadbirkorlik huquqining manbalari sifatida e’tirof etiladi. Misol uchun, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish tartibini belgilovchi asosiy qonun “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini belgilovchi qonunosti hujjatlari. Tadbirkorlik huquqining manbai – bu tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida vujudga keladigan tadbirkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa ish muomala odatlaridir. Tadbirkorlik huquqining manbalari: O‘zbekiston Respubikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respubikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari. O‘zbekiston Respubikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi plenumlari qarorlari. Tadbirkorlik qonunchiligining rivojlanish bosqichlari va kodifikatsiyalashtirish masalalari haqida fikrlar.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi biznes faoliyatini olib borishning kafolati sifatida muhim ahamiyatga ega. Jumladan: “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi”. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari xususiy mulkining boshqa mulk shakllari bilan bir qatorda davlat himoyasida bo‘lishi, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy

zaxiralarning umummilliy boylik bo‘lishi kabi normalar Konstitutsiyada kafolatlanadi<sup>1</sup>.

Tadbirkorlik huquqini tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi muhim ahamiyatga ega. U mulk huquqi, majburiyat huquqi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, mulk ijarasi, lizing, pudrat, qurilish pudrati, tashish, kredit, hisob-kitob va shunga o‘xhash tadbirkorlik subyektlari ishtirokida tuziladigan shartnomalarga oid qoidalarni o‘zida birlashtirib, bevosita tadbirkorlik huquqiga manba hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat olib borishiga xizmat qiluvchi va ular huquqlarini himoya qilishga qaratilgan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi, “Ijara to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi, “Raqobat to‘g‘risida”gi, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar qabul qilingan. Tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va huquqiy holati “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi, “Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarda mustahkamlangan.

Tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarda mustahkamlangan. Ayniqsa, 2015 yil 20 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-55-moddalar.- T.; O‘zbekiston, 2017 yil.18-19 bb.

qaratilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi – 391-sonli Qonuni tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish va kafolatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqdi<sup>1</sup>.

Tadbirkorlik huquqi manbalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlaridir. Bunga misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014 yil 13 noyabrdagi SQ-453-II-son “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi davlat budgeti, davlat maqsadli jamg‘armalarining budgetlari hamda soliq va budget siyosatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarorini keltirib o‘tish mumkin. Ayniqsa, tadbirkorlik huquqining bozor munosabatlari rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar, ya’ni farmonlar, qarorlar va farmoyishlar muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, 2018 yil 5 oktabr kuni "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlanish yo‘lidagito‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4725-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4609-sonli farmonlari, 2014 yil 15 apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2164-sonli qarorini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Tadbirkorlik huquqining manbalaridan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ya’ni 2014 yil 6

---

<sup>1</sup> Qurang; O‘zbekiston Respublikasida Qonun hujjatlari to‘plami

oktabrdagi “Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 279-sonli, 2014-yil 2 iyuldagagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hisoblanadi. Shuningdek, vazirliklar va davlat qo‘mitalari, agentliklarning o‘z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda qabul qilgan huquqiy hujjatlari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2010 yil 23 iyundagi 4-son qarori bilan tasdiqlangan “Strategik va monopol mahsulotlar, xom ashyo va materiallarni birja va kimoshdi savdolariga qo‘yilishini nazorat va monitoring qilish to‘g‘risidagi Nizom (2010 yil 26 iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2125) ham tadbirkorlik huquqi manbasi sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining o‘z hududi doirasida kuchda bo‘ladigan huquqiy hujjatlari ham bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik qonunchiligiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Tadbirkorlik qonunchiligi – bu tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yig‘indisidan iborat. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumi qarorlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Ular tadbirkorlik huquqi uchun manba bo‘lmasa- da, qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlarini xo‘jalik sudlari tomonidan to‘g‘ri qo‘llashda, xo‘jalik nizolarini tez va to‘g‘ri hal etishda sudlarga tushuntirishlar berib, muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi va Oliy xo‘jalik sudi plenumining 2012 yil 14 sentabrdagi 12/239-son “Tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog‘liq qonun hujjatlarini sud amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori sudlar va ushbu masala taalluqli barcha shaxslar uchun majburiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qo‘llaniladigan ish muomala odatlari ham tadbirkorlik huquqining manbalari sifatida e’tirof etiladi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining joriy etilishi, uning qonuniyatlarining jamiyat hayotiga keng qo'llanilishi respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishiga zamin yaratdi. Bunda iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida tadbirkorlik (biznes) (bundan buyon matnda – tadbirkorlik deb yuritiladi) faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari muhim o'ringa ega. Ular faoliyatini huquqiy tartibga solish, biznes yuritish asoslari barcha shaxslar, jumladan xorijiy biznesmenlar uchun bir xil qilib belgilangan. Masalan: Hindistonda "ManSin" korporatsiyasini ta'sis etilgan bo'lib, uning bosh qarorgohi Dehli shahrida joylashgan. "ManSin" korporatsiyasi kompyuterlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va Hindiston, Pokiston va Xitoy hududlarida faoliyat yuritadi. Toshkentda bo'lib o'tgan "IKT-EKSPO – 2014"da yarmarkasida qatnashgan "ManSin" korporatsiyasi ijro organi rahbari Manjid Singx O'zbekistonda ham IKT sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarga ham e'tibor qaratilayotganining guvohi bo'ldi va o'z biznesini O'zbekistonda ham amalga oshirishga qiziqib qoldi. Shu sababdan "ManSin" korporatsiyasi ijro organi rahbari Manjid Singx korporatsiyaning yuridik departamenti boshlig'i Ranjit Singxga O'zbekiston Respublikasida biznesni amalga oshirish to'g'risida, umumiylumot tayyorlab berishni so'radi. O'zbekistonda Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga izchil tatbiq etilayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatdi. Bozor munosabatlarining rivojlanishida tadbirkorlik subyektlarining, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Jumladan: Mamlakatimizda 2015 yilda yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi. Yillik budjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi... Yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy I BOB.

Tadbirkorlik (biznes) huquqi alohida huquq sohasi 18 tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i... mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergen imkoniyatlarning yaqqol isboti... Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lган Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014–2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016–2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani, albatta, barchamizga mamnuniyat yetkazadi<sup>1</sup>. Mamlakatimizda qo'lga kiritilayotgan bunday yutuqlar jahonning ustaqil nifuzli reyting tashkilotlari tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasining "Doing Business" (Biznes yuritish) hisobotidagi reytingi bo'yicha: T/R Ko'rsatgichlar DB-2014 DB-2015 DB-2016 O'zgarish 2015 yilga niisbatan

1. Korxonani ro'yxatdan o'tkazish 65 64 42 +22
2. Qurilish uchun ruxsatnomalar olish 149 149 151 -2
3. Elektr tarmoqlariga ulanish 145 108 112 -4
4. Mulkka huquqni ro'yxatidan o'tkazish 143 113 87 +26
5. Kreditlash 154 105 42 +63
6. Investorlar himoyasi 100 87 88 -1
7. Soliq solish 118 117 115 +2
8. Xalqaro savdo 189 158 159 -1
9. Sharhnomalar ijrosini ta'minlash 28 32 32 0
10. To'lov qobiliyati 77 75 75 0

---

<sup>1</sup> [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi].

O‘zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o‘nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan. Yuqorida keltirilgan fikrlar va ma’lumotlar mamlakatimizda iqtisodiyot sohasiga, jumladan tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar, imtiyoz va qulayliklar, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish va kafolatlash tizimi yaratilganligini tasdiqlaydi. Bozor tadbirkorlik subyektlarining erkin faoliyat olib borishlari uchun keng shart- sharoitlar yaratib, erkin raqobat muhitining, eksport va import imkoniyatlarining bozor qonuniyatlari asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi. “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish muammolariga tik ko‘z bilan qarash kerak. Bozor iqtisodiyotining faqat ijobjiy tomoninigina emas, balki uning salbiy tomonini ham ko‘ra bilish kerak. Bozorga, ayniqsa uning shakllanish bosqichida uzoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o‘sishi, pulning qadrsizlanishi, ko‘pgina korxonalarning sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo‘lishi, aholining moddiy ta’minot jihatidan keskin tabaqalashuvi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o‘sishi xosdir. Bozorning bu illatlarini bilish, ularga tayyor turish, ularni bartaraf etish yuzasidan to‘g‘ri yechimlar topa bilish kerak”.

“Tadbirkor”, “Tadbirkorlik” tushunchalarini birinchi bo‘lib XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo’llagan. Uning fikricha, tadbirkor – tavakkalchilik sharoitida faoliyat ko’rsatuvchi kishidir. SHu boisdan u er va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manvai deb bilgan. Keyinchalik, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur frantsuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832) “Siyosiy iqtisod risolasi” kitobida (1803) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari – er, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta’riflagan edi. Tadbirkorlik (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha - predprinimatelstvo) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir. Sohibqiron Amir

Temur tadbirkorlik faoliyatini qo'llab- quvvatlab va tadbirkorlarni ulug'lab, ularning nafaqat o'zi valki jamiyat uchun ham katta nafî tegishini, inson doimo faol bo'lishini ta'kidlab, o'z tuzuklarida "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir", deb ko'rsatadi. Tadbirkorlik va biznes tushunchalari o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, bir birini to'ldiradi. "Biznes" - so'zi inglizcha so'z bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so'z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir<sup>1</sup>. Tadbirkorlik sohasida biznes foyda beradigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar biznesmen sifatida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, yalpi ichki mahsulotning ko'payishiga, aholi faravonligining oshishiga xizmat qiladi. Biznesmen (tadbirkorlik) so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo'lib, u "mulk egasi" degan ma'noni bildirgan<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda biznesmen – bu o'z mulki yoki boshqa shaxslar mulkidan foydalangan holda o'z ishbilarmonligi va tajribasiga hamda tavakkalchilikka asoslanib, foyda olishni ko'zlab ish olib boruvchi shaxsdir. Biznes (inglizcha – business; ruscha – delo, anterprenerstvo – ish, mashg'ulot) – tavakkalchilik va o'zining javobgarligi ostida xususiy yoki qarzga olingan vositalari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va o'z faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyatdir. Ishbilarmonlik – biznes yuritish uchun amaliy qulay sharoit tug'dirib berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish real iqtisodiyotni isloh etishning navbatdagi eng muhim yo'nalishidir. Mamlakatimiz rahbari SH.Mirziyoyev qayd etganidek "...Soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirilib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish

<sup>1</sup> Tadbirkorlik (biznes) huquqi.Darslik. 1-2 tom. SH.N.Ro'zinazarov va boshqalar. –T.: TDYuU, 2016. 27 -bet.

<sup>2</sup> O'sha manba

masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilayotganligini ta'kidlash lozim"<sup>1</sup>. Bozor munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jarayonlar bir qator qonunlarida, jumladan, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, Yer kodeksi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi. Ushbu huquqiy munosabatlarni tadbirkorlik huquqi modul fani o'rghanadi, u bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayonida muhim huquqiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar elementlari shu munosabat subyektlari, obyektlari va uning mazmunidan iborat bo'ladi. Tadbirkorlik huquqi subyektlari bilan tadbirkorlik faoliyati subyektini farqlay bilish kerak. Tadbirkorlik huquqi subyektlari – tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda ishtirok etadigan tadbirkorlar (yuridik shaxs va YATT), davlat yoki uning organlari bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati ma'lum subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. "Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxs va jismoniy shaxslardir". (Qonunning 4-moddasi). Tadbirkorlik subyektlari kimlardan iborat bo'lishi mumkin? Tadbirkorlik faoliyatining subyekti bo'lish uchun ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari kerak. Shaxs, ya'ni "Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir"<sup>1</sup>. Yuridik shaxs ham tadbirkorlik faoliyati subyekti bo'lishi uchun tegishli tartibda davlat ro'yxatdan o'tgan, bunday faoliyatning alohida huquq sohasi bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomasi (litsenziya) olgan bo'lishi kerak. Shuning bilan birga tadbirkorlik faoliyati subyekti hisoblangan korxona yoki firma yuridik shaxs deb tan

---

<sup>1</sup> Mirziyoev SH.. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda so'zlagan nutqi. - <https://sputniknews-uz.com/politics/2017>

olinishi uchun Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak<sup>13</sup>. Tadbirkorlik huquqiy munosabat obyektlari:

- 1) ashylar, pul va qimmatli qog‘ozlar, o‘zga mol-mulklar;
- 2) bajariladigan ishlar;
- 3) ko‘rsatiladigan xizmatlar;
- 4) tadbirkorlik faoliyatida foydalilanadigan nomulkiy ne’matlar (firma nomi, tovar belgisi, tijorat siri va boshqalar) hisoblanadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarini turkumlanishi: mutlaq ashayoviy huquqiy munosabatlar (mulkiy munosabatlar);( mutlaq-nisbiy ashayoviy huquqiy munosabatlar (tadbirkorlik( yuritish, operativ boshqarish); o‘z tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo‘yicha mutlaq huquqiy( munosabatlar; nomulkiy-mutlaq tadbirkorlik huquqiy munosabatlari; (majburiyat tadbirkorlik huquqiy munosabatlari).

Respublikamizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar natijasida jamiyatimiz taraqqiyotining takomillashgan asoslari yaratilmoqda va milliy mustaqilligimiz poydevori yanada mustahkamlanib bormoqda. Ushbu jarayonda milliy iqtisodiyotimizning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilish o‘ta dolzarb masaladir.

Zero «Inson iqtisod uchun emas, balki iqtisod inson uchun» degan hikmatli gap bejiz aytilmagan. Bu hikmatomuz fikr mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning mohiyat va maqsadini ifodalaydi. Uni hayotga joriy etish esa o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan har bir mutaxassisning insoniy burchidir. Buning uchun esa yangicha iqtisodiy fikrlash, boqimandalik psixologiyasidan xoli bo‘lish, halollik, tadbirkorona ish yuritish, o‘z taqdiri va baxt-saodati uchun mas’ullikni xarakterlovchi hayotiy nuqtai nazar, boshqacha aytganda, tadbirkorlik zarur bo‘ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatimizning, bugungi va kelajak

---

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-bo‘lim –T.; Adolat, 2012. 148-bet

taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo‘lishi shart<sup>1</sup> deb ta’kidlaganlari bunga yaqqol misoldir.

Tadbirkorlik hayotimizda tobora keng ko‘lam olayotgan sharoitda ko‘p qirrali bilimga ega, chuqur mushohada va mulohaza asosida qarorlar qabul qilishga qodir, o‘z kasbini puxta egallagan kadrlar bo‘lishi shart. Bu esa o‘z navbatida mustaqil davlatimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarni tarbiyalashda va ularning barkamol inson bo‘lib shakllanishida o‘qituvchi, pedagoglar, pedagog olimlar zimmasiga o‘ta muhim vazifalarni yuklaydi. Zero, o‘sib kelayotgan hozirgi avlod barkamol va yetuk inson bo‘lishi uchun bozor iqtisodiyoti bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallahini, to‘g‘rirog‘i, tadbirkorlik fazilatiga ega bo‘lishini zamonning o‘zi taqozo etmoqda.

Tadbirkorlik har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi va hal qiluvchi ahamiyatga ega ustuvor soha bo‘lib, uning samarali rivoji o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar mazmunining boyishi, ishlab chiqarishga nisbatan ilg‘or qarashlarning shakllanishi, shuningdek, ishlab chiqarish va yaratuvchanlik faoliyati ko‘laming yanada kengayishini ta’minlaydi.

Tadbirkorlikni shakllantirish davr talabining muhim masalasiga aylanar ekan, turli hayotiy vaziyatlarda va xo‘jalik tarmoq tizimlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassis-kadrlarning iqtisodiy qarashlari, ularning kasb-koridan qat’iy nazar, shaxsiy-kasbiy shakllanishining sharti va asosi iqtisodiy bilim hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo‘lishi shart.

---

<sup>1</sup> Mirziyoev SH.. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda so‘zlagan nutqi. - <https://sputniknews-uz.com/politics/2017>

## 1.2 Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari va ularning turlari

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tushunchasi va maqomini aniqlash uchun avvalambor “huquq sub'ekti” va “fuqarolik huquqi sub'ekti” tushunchalarining mohiyatini chuqur anglab olish lozim bo‘ladi. Huquq sub'ekti keng huquqiy kategoriya hisoblanib, uning tarkibiga amaldagi qonun hujjatlariga binoan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari kiradi. O‘z navbatida har bir huquq tarmog‘ining o‘z sub'ektlari (davlat huquqida – saylovchilar va saylanuvchilar, mehnat huquqida - ish beruvchi va xodim, moliya huquqida - soliq to‘lovchi va soliq organi, jinoyat protsessual huquqida II BOB. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari va ularning turlari surishtiruvchi, tergovchi, gumondor, ayblanuvchi, sudlanuvchi va h.k.) bo‘lganidek, tadbirkorlik huquqining ham o‘z sub'ektlari bor.

Fuqarolik huquqining barcha sub'ektlari yagona “shaxslar” degan umumiyl nom bilan ifodalanadi. “SHaxslar” ham o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi: **birinchisi**, fuqarolar (jismoniy shaxslar) bo‘lib, u o‘z ichiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni oladi; **ikkinchisi**, yuridik shaxslar bo‘lib, u o‘z ichiga foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lмаган tashkilot)larni oladi va bunday tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi, chet el yoki aralash (qo‘shma) korxonalar shaklida bo‘lishi mumkin; **uchinchisi**, davlat bo‘lib, u alohida sub'ekt sifatida bevosita o‘z nomidan, shuningdek uning nomidan ma’muriy hududiy tuzilmalar yoki davlat organlari ishtirok etishlari mumkin<sup>1</sup>.

Tadbirkorlik huquqining sub'ektlari – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan shaxslardir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-bo‘lim –T.; Adolat, 2012. 178-bet

Jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik huquqiy munosabatlarda tadbirkor sifatida, shuningdek bunday maqomga ega bo‘lmasdan ham ishtirok etishlari mumkin. SHuning uchun fuqarolik huquqi sub’ektlari bir vaqtning o‘zida tadbirkorlik huquqi sub’ektlari hisoblanishi mumkin. Farq shundaki, tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda sub’ekt har doim tavakkal qilib, o‘z javobgarligini zimmasiga olib, foyda olishni maqsad qilgan holda faoliyat yuritadi.

Davlatning kuch qudrati – avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o‘lchanadi<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon davlatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlarini orttirishda, ishsizlik muammosini echishda ham muhim omilga aylantirishga erishish yo‘lida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Haqiqatan, amaldagi qonun hujjatlarimizga muvofiq holda xususiy sektorning rivojlanishiga keng yo‘l ochib berilmoqda, buning natijasida esa tadbirkorlik faoliyati keng qanot yoymoqda. Bu esa o‘z navbatida fuqarolarning tadbirkorlik-huquqiy munosabatlarining sub’ektlari deb tan olinishiga olib keldi.

Hozirgi tadbirkorlik huquqi – bu yakka va jamoa tadbirkorlarining yoki boshqacha qilib aytganda, fuqarolarning va barcha mulk shakllariga ega bo‘lgan xususiy, shuningdek davlat korxonalarining professional faoliyati bo‘lib qoldi. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari (tadbirkorlik sub’ektlari) belgilangan tartibda

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va forovon hayot – pirovard maqsadimiz»//«Ozod va obod Vatan, erkin va forovon hayot – pirovard maqsadimiz».8-jild/- T.; O‘zbekiston. 2003. 134-bet

avlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir<sup>2</sup>.

Biroq, davlat organlari, ularning mansabдор shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari bo‘lishi mumkin emas.

**Masalan**, quyidagi mansabдор shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ta’qiqlanadi:

davlat hokimiyati va boshqaruв organlarining, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari;

davlat banklari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari, xizmat yuzasidan pul belgilariga va pul (bank) hujjatlariga bevosita aloqasi bo‘lgan mansabдор shaxslar;

davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari rahbarlari va ularning bank hujjatlariga imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan o‘rinbosarlari;

davlat ta’midot va savdo-sotiq korxonalari va tashkilotlarining rahbar xodimlari; tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilish yoki bunday faoliyatni nazorat qilish o‘z vazifasiga kiruvchi davlat organlarining rahbar xodimlari va mutaxassislari;

chakana, ulgurji-chakana savdo, umumiy ovqatlanish davlat birlashmalarini va korxonalarining, savdo tashkilotlarining, trestlarining rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari, bosh mutaxassislari, tarkibiy bo‘linmalarining boshliqlari, moddiy javobgar shaxslari<sup>1</sup>.

Foyda ko‘rish maqsadida, tavakkal qilib tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) bilan shug‘ullanish ixtisoslashgan faoliyatga aylangan taqdirdagina bunday faoliyatning ishtirokchilarini tadbirkorlar deb hisoblash

---

<sup>2</sup> Qarang; O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagи “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-328-son yangi tahrirdagi qonunning 4-moddasi

<sup>1</sup> qarang; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 martdagи “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish ta’qiqlangan mansabдор shaxslar ro‘yxati to‘g‘risidagi”103-son Qarori

mumkin. Agar fuqaro bunday harakatlarni alohida hollardagina (vaqtı-vaqtı bilan) foyda ko‘rishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymay amalga oshirgan taqdirda, masalan, o‘zidagi ortiqcha qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yoki keraksiz bo‘lgan boshqa ashyolarni sotishi, yoki ishlarni bajarib berish uchun shartlashib va u bajarilganligi uchun haq olinadigan bo‘lsa, bunday faoliyatni tadbirkorlik faoliyati deb bo‘lmaydi, chunki bu kabi munosabatlar fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. SHuningdek, bank muassasalariga foiz olish maqsadida jamg‘arma qo‘yan fuqarolar, qimmatli qog‘ozlar sotib olgan shaxslar ham tadbirkorlar hisoblanmaydi.

Umumlashtirib olganda tadbirkorlik huquqi sub’ektiga quyidagicha tushuncha berish mumkin: tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, o‘zining mulkiga, tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo‘lgan, o‘z faoliyati yuzasidan mustaqil davogar va javobgar bo‘la oladigan va o‘zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila oladigan (yuridik shaxs maqomini olgan) turli mulk shakllariga mansub korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi - yakka tadbirkor maqomiga ega bo‘lgan fuqarolar, shuningdek tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotgan davlat va uning vakolatli idoralari hisoblanadi.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagilar tadbirkorlik sub’ektlarining o‘ziga xos belgilari hisoblanadi:

1. davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lishligi;
2. muayyan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari uchun albatta ruxsatnomasi (litsenziya)ga ega bo‘lishlari lozimligi;
3. o‘z mol-mulkiga ega bo‘lishligi;
4. tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo‘lishligi: bunday huquq va majburiyatlarning doirasi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan

---

1.Tadbirkorlik (biznes) huquqi.Darslik. 1-2 tom. SH.N.Ro‘zinazarov va boshqalar. –T.: TDYuU, 2016. 37 -bet.

hamda ularga muvofiq qabul qilingan mazkur tadbirkorlik faoliyati yurituvchi sub'ektlarining ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi;

- ◆ mustaqil javobgarligi: javobgarlik uning o‘z mol-mulki doirasida amalga oshiriladi;
- ◆ o‘zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligi hisoblanadi.

Umuman olganda, tadbirkorlik huquqi sub'ektlarini bir necha turlarga ajratish mumkin. Sub'ektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga (masalan, fuqarolarning xususiy mulki, jamoa mulki yoki davlat mulkiga asoslangan), vakolatlariga (ya’ni bevosa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar, yoki boshqaruvni amalga oshiruvchi sub'ektlar kabi), shaxslarga (jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar) hamda faoliyat turiga (tijoratchi va notijorat tashkilotlar) qarab belgilanadi.

SHu o‘rinda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarni faoliyat maqsadiga (turiga qarab tijoratchi tashkilot va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotga ajratilgan ikki turiga tushuncha berib o‘tsak.

Ushbu turlarga bo‘lish Fuqarolik kodeksida, yuridik shaxslarning turlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, to‘laqonli tarzda tadbirkorlik huquqi sub'ektlarining turlariga va ularning huquqiy holatiga tushunchalar berib o‘tilgan<sup>1</sup>.

**Tijoratchi tashkilot** - bu foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan sub'ekt bo‘lib, (xususiy korxonalar, xo‘jalik jamiyatlari, shirkatlari) tijoratchi tashkilotlarning huquqiy holatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

**Tijoratchi bo‘lmagan** tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari o‘z oldiga muayyan maqsadni ko‘zlagan holda harakat qilib, foyda ko‘rishni ko‘zlamaydi. Bunday

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 24-modda- T.Adolat, 2009 yil 57-bet

sub'ektlarga jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqomiga ega bo'lishlik imkoniyati berilib, ular ham tadbirkorlik huquqining sub'ektlari doirasiga kiritilgan.

Jumladan, Fuqarolik kodeksiga muvofiq, fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir<sup>2</sup>.

Keenan va Richeslar hammuallifligida 2013 yilda yozilgan "Business Law" kitobining 2-bo'limida qayd etilishicha Angliyada tadbirkorlik sub'ektlari, ya'ni biznes tashkilotlarining quyidagi turlari sanab o'tilgan. YAKKA tartibdagi tadbirkorlik (the sole trader), sheriklik, shirkat (the partnership) va kompaniya, korxona (the company).<sup>1</sup>

**1. YAKKA tartibdagi tadbirkorlik (the sole trader).** Bunday faoliyat yagona shaxs tomonidan yuritiladi. Hamma mulk va foydaga o'zi egalik qiladi. SHuning bilan birgalikda hamma zararlar va yo'qotishlarni ham o'z bo'yniga oladi.

**2. SHeriklik, shirkat (the partnership).** SHerikchilikning uchta turi mavjud. Bu biznes texnikasi deb ham ataladi. **CHegaralanmagan sherikchilik (unlimited partnership).** Bunda hamma zararlar, muammolar va xarajatlar sheriklar o'rtasida taqsimlanadi. Albatta foyda ham. Bu asosan teng sherikchilik deb ataladi. Firmaning qarziga bo'lgan qobiliyati sheriklar ma'lum haq olish uchun foyda bo'limgan holda ortishi mumkin. Sudning qoidalariga ko'ra, huquqiy maqomi bo'limgan sheriklar o'rtasida foyda taqsimlanishi shartmas. SHerikchilik uchun asosiy narsa bu shartnoma hisoblanadi. Bunda biznes faoliyati yo'nalishlari kelishilgan hisoblanadi. YOzma shartnoma muhim emas, og'zaki shartnoma ham ahamiyat kasb etadveradi. Misol uchun A. shaxs B shaxs

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 24-modda- T.Adolat, 2009 yil 45-bet

<sup>1</sup> Tadbirkorlik huquqi(darslik). T.: TDYUU, 2015yik 70-71.

bilan sherikchilik shartnomasi tuzgan bo'lsa, ular qonun oldida teng bo'ladi. SHeriklarning mas'uliyati umumiy chegaralanmagan. Agar firma II BOB. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari va ularning turlari qarzlarini to'lay olmasa teng huquqli sheriklarda to'lash majburiyati vujudga keladi. **CHegaralangan sherikchilik (limited partnership).** Biznes texnikasi sifatida chegaralanmagan sherikchilikni olish mumkin. Bir sherik to'liq mas'uliyatga ega bo'lganda, firma qarzini to'lay olmasa, qolgan sheriklar mas'uliyati cheklab qo'yilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, agar biznes qiyin vaziyatlarda qolsa, sheriklar o'zлari kiritgay sarmoyani yo'qotishi mumkin. Lekin, mas'uliyati cheklanmagan sherikning majburiyatlariga aralasha olmaydi. SHerikchilikning bunday turi, odatda ko'p qo'llanmaydi. Ular faqatgina kollegial investorlar uchun ishlataladi. **Mas'uliyati cheklangan sherikchilik (limited liability partnership - LLP).** Bu oxirgi tashkil qilingan tadbirkorlik faoliyati turlaridan biridir. Ro'yxatga o'tkazuvchi sub]ekt tomonidan ro'yxatga olinadi. Korxona mulkiga yuridik shaxs egalik qiladi ya'ni a'zolar. Korxona uning hamma qarzlari uchun o'zi javobgar bo'ladi, hech qanaqa a'zolar o'rtasida shaxsiy javobgarlik bo'lmaydi. Agarda korxona bankrot bo'lsa, sheriklar qo'ygan sarmoyasidan judo bo'ladi, ammo korxona mulki bo'yicha ularda hech qanaqa majburiyat bo'lmaydi. SHeriklar sherikchilik shartnomasida bu haqida kelishib olishadi, ammo shunday kelishishga qonun majburlamaydi. SHunga qaramasdan, sherik tomonidan ikki yil mobaynida uning xatosi bilan korxona bankrot bo'lsa, sud unga nisbatan majburiyat yuklashi mumkin. LLPning tajribasi hozirgi kungacha shuni ko'rsatadiki, 2000-yildagi LLP akti advokatlar, buxgalterlar va boshqa mas'uliyatli shaxslar tomonida keng qo'llanilgan. LLP 2000 Aktining hamma boblari va yo'nalishlari hamda boshqa qoidalar 1985 yilgi Korxonalar to'g'risidagi qonunga (UK Companies Act 1985) asoslanadi. 2007 yil noyabrdagi hukumat 2006 yilgi Korxonalar to'g'risidagi qonunnig LLP qismiga alohida to'xtalib o'tdi. E'tiborlisi shuki, LLP o'rta biznes qatlami uchun qo'llaniladi, vaholanki u yirik kompaniyalar tomonida tashkil

topilishi lozim. Aniq bo‘lishicha, hozirda LLPning 2006 yilgi Korxonalar to‘g‘risida qonuning unga bog‘liq qismi yangilanish lozim. Qonunning bo‘limlari endilikda LLPga a’zo bo‘lmoqchi bo‘lgan shaxslar hamda ayni paytda a’zolarining o‘rtasida aniq muvozanatni yaratishi lozim.

**3. Korxonalar (companies)**. Biznes faoliyati ro‘yxatdan o‘tgan korxona shaklida ham yuritilishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tish qoidalari asosida Kardiffdagi ro‘yxatdan o‘tkazuvchi tashkilot tomonidan ro‘yxatga olinadi. 2006-yildagi qonunga asosan xususiy korxonalar korxona kotibiyati tashkil qilishi shart emas, ammo ular xohlasa bunga ta’qiq yo‘q. Xususiy korxonada asosiy xulosalar sarmoyadorlar hamda biznes maslahatatchilari, ya’ni maxsus buxgalterlar va advokatlar tomonidan chiqarilishi umumiylis hisoblanadi.

Korxonalar to‘g‘risidagi qonunning ijrosidan so‘ng, xususiy korxonalarda ulushlar ma’lum darajada cheklanadi, yoki biz a’zo bir kishi uchun javob beradi. YOki uning sherikligi bir kishi uchun yopiladi. Bu qoidalar 2006-yilgi Korxonalar to‘g‘risidagi qonunda belgilangan. Agarda biznes faoliyati anchagina katta bo‘lsa va korxona ochiq turdagi mas’uliyati cheklangan jamiyat bo‘lsa, u 2006-yilgi qonunga binoan kotibiyatga ega bo‘lishi lozim.<sup>1</sup>

**Yakka tartibdagi tadbirkor.** 2012 yil 2 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunda tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari doirasi kengaytirilib, ular kichik tadbirkorlik sub’ektlari shaklida, jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kichik tadbirkorlik sub’ekti sifatida mastahkamlandi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Tadbirkorlik huquqi(darslik). T.: TDYUU, 2015yik 75-78.

<sup>1</sup> Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (yangi tahrir)] 2012 yil 6-modda- lex uz.

YAkka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun ko‘pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishlicha haq to‘lagan holda jalb etishga haqlidir.

YAkka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamplardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim.

YAkka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotining umumiyligi birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Demak, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari shakllari to‘g‘risida so‘z ketar ekan qonun ularni quyidagi tarzda mustahkmlaganligini ta’kidlash joiz.

- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- er-xotining umumiyligi mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;

- ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foyda olish yoki qonunga zid bo‘lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o‘z hissalarini qo‘sish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy shirkat;
- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligini yuritish.

YURidik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish (davlat ro‘yxatidan o‘tishi) uchun shaxs 18 yoshga to‘lgan bo‘lishi lozim.

YAKKA tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining negizi, mulkning shakllanish holati bir-biridan farq qiladi. YAKKA tartibdagi tadbirkor mulk huquqi asosida faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida faoliyat ko‘rsatsa, oilaviy tadbirkorlik mol-mulk negizida umumiy birgalikdagi mulk asosida amalga oshiriladi.

### **Oilaviy tadbirkorlik**

Bugun rivojlangan davlatlar tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning eng samarali vositasi, aholi bandligi va daromadlarini oshirib borishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlatimiz tomonidan soha vakillarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratilib, muntazam takomillashtirilib borilmoqda.

SHuni alohida qayd etish joizki, 2012 yil 26 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinganligi tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan fuqarolarga qo‘sishimcha imkoniyat va qulayliklar yaratdi.

Gap oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish to‘g‘risida ketar ekan, er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan

hollarda vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi muhimdir. CHunonchi qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday holda er(xotin)ning roziligi talab qilinadi. Bunday rozilik notarial tasdiqlangan bo'lib, qaysi mol-mulkdan foydalanishga kelishilgan bo'lsa, ushbu mol-mulkka tegishli ma'lumotlar qayd etilishi lozim.

YURidik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tadbirkorlikning er-xotinning umumiyligi mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik turida (ish muomalalarida) er-xotin nomidan arning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Keyingi yillarda... Tadbirkorlikning milliy an'ana va urf-odatlarimizga to'la mos keladigan yangi shakli – oilaviy biznesni rivojlantirish uchun keng shart-sharoitlar yaratildi.

Oilaviy tadbirkorlikda er-xotinning umumiyligi birgalikdagi mol-mulkidan foydalanishda qonun oilaning voyaga etgan boshqa azolarining manfaatlarini inobatga olgan, xususan, agar tadbirkorlik faoliyati ob'ekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirishishi oilaning voyaga etgan boshqa azolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan holda olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldaggi "YURidik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 216-son qarorida ham ko'rsatilgan.

YURidik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli **oilaviy korxonadir**.

Qonuning 4-moddasiga binoan “Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub’ektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy II BOB. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari va ularning turlari mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik sub’ektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Oilaviy korxona o‘z majburiyatları bo‘yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Oilaviy korxona ishtirokchilari korxona mol-mulki etarli bo‘limganda oilaviy korxonaning majburiyatları bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi.

Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub’ektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o‘rtacha yillik sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi kerak.

Oilaviy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Oilaviy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni yoki “OK” abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak.

Oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. II BOB. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari va ularning turlari **Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish**

Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganlaridek, “Davlatning boshqaruva sohasidagi roli inkor etilsa, ma’muriy buyruqbozlik tizimidan iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o‘tishini ta’minlash qiyin kechadi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bozor munosabatlari me’yori mustahkamlanib, islohotlarning ortga qaytmasligi ta’minlanib borgan sari davlatning ta’siri ham shunga muvofiq ravishda izchillik bilan kamayib boraveradi”<sup>1</sup>.

SHu nuqtai nazardan davlat iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning hamma sohalarini o‘zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishni ta’minlashni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo‘li bilan boshqarish va tartibga solish hamda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bevosita huquqiy vositalar yordamida hal etishga imkoniyat yaratadi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A.. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari”. T., “O‘zbekiston”, 1997, 189-bet

## **II BOB: O'ZBEKISTONDA XUSUSIY SEKTORNING RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

### **2.1. Xususiy mulk daxlsizligining huquqiy kafolati**

Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to`liq erkinlik berish, bu yo`lda g`ov bo`lib turgan varcha to`sinq va cheklowlarni vartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir. Varqaror iqtisodiy o`sish va mamlakatimizning kelajak istiqboli, aholining hayot darajasi va sifati ko`p jihatdan ayni mana shu eng ustuvor vazifaning qanday hal etilishiga bog`liq.

O'zbekistonimizda, mana chorak asrdan oshdiki, demokratik bozor munosabatlarini joriy etishga, xususiy mulk va mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohot-lar amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda kichik biznes mamlakat yalpi ichki mahsulotining 56,6 foizini yetishtirib berayotganligi ham shuning samarasidir. Xususiy mulk kafolatlari kuchaytirilib, aholi farovonligi yuksalgani sayin fuqarolarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligi ortib bormoqda. Yurtimizda xususiy mulk daxlsizligi davlat tomonidan himoya qilinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Konstitutsiyamizda xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi qat'iy mustahkamlangan.

Qayd etib o'tish joizki, istiqlolning o'tgan yillari davomida mamlakatimizda ushbu konstitutsiyaviy qoida asosida xususiy mulk va mulkdorlarni himoyalashga qaratilgan ishonchli normativ-huquqiy asos va kafolatlar, jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun zarur sharoit va imtiyozlar yaratish bo'yicha ko'pgina ishlar vajarildi va vajarilmoqda. Bunda asosiy e'tibor xususiy mulk daxlsizligi va uning himoyasini huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilmoqda. CHunonchi, 2012 yilda O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. E'tiborli jihat shundaki, bevosita xususiy mulk daxlsizligi va huquqiy himoyasiga vag'ishlangan bunday

qonun kamdan-kam davlatlar tajrivasida uchraydi. Ushbu hujjatda mulkdor o`z mol-mulkiga nisvatan qonunga zid bo`lmagan har qanday harakatlarni vajarishga haqli ekanligi qat`iy norma sifatida belgilab qo`yilgan. Qonunda, shuningdek, xususiy mulkni himoya qilish masalasiga alohida urg`u berilgan. Xususiy mulk huquqini himoya qilishning xususan quyidagi usullari qayd etildi:

- xususiy mulk huquqini tan olish;
- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk hukuqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug`diradigan harakatlar oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqivatlarini qo`llash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o`zini o`zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- xususiy mulk huquqini mulkdorning o`zi himoya qilishi;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o`zini o`zi boshqarish organining qonunga zid bo`lgan hujjatining sud tomonidan qo`llanilmasligi.

Ma`lumki, xususiy mulk vujudga kelishi usullaridan biri davlat mulkini xususiylashtirishdir. Qonunda davlat mulkini xususiylashtirish natijasida vujudga kelgan mulkning daxlsizligi qat`iy belgilangan. Unda shuningdek davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida vujudga kelgan xususiy mulk daxlsizligi, xususiylashtirish natijalari qayta ko`rib chiqilmasligi va bekor qilinmasligi mustahkamlab qo`yildi. Bugungi kunda mazkur normani hayotga tatbiq etish, ya`ni davlat mulkini xususiylashtirish yo`li bilan xususiy mulkdorlar safini kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2015 yil 28 apreldagi qarori bilan davlat aktsiyalarining 411 paketi va xo`jalik jamiyatlari ulushi hamda 836 bo`sh turgan va foydalanimayotgan ob`ektlar,

shu jumladan, 512 ob`ekt investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan “nol” xarid qiymati bo`yicha oshkora savdolarda sotish choralari tasdiqlandi. Joriy yilning 9 oyida davomida davlat aktsiyalarining 204 paketi savdoga qo`yildi, 88 ta foydalanimayotgan davlat mulki ob`ekti oshkora savdolarda sotildi. So`nggi yillarda mulkdorlarning mulk huquqlarini davlat organlari va har qanday shaxslar tomonidan buzilishining oldini olishga alohida e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasining 2015 yil 20 avgustda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik sub`ektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo`lidagi to`sqliarni vartaraf etishga qaratilgan o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi Qonuni ham aynan shu maqsad ko`zlashi bilan ahamiyatlidir. Mazkur Qonun bilan O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi, Jinoyat, Fuqarolik, Er va Uyjoy kodekslariga bevosita xususiy mulk huquqi himoyasi mexanizmini ta`minlovchi qator o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritildi.

Jumladan, Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeks “Xususiy mulk huquqini buzish” deb nomlangan 241-1-modda bilan to`ldirildi. Unda nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan xususiy mulkdorlarning huquqlarini buzish yo`li bilan ularga zarar etkazish, ya`ni mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum qilish, xususiy mulkka tajovuz qilish, nomaqbulligi oldindan ayon bo`lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish, shuningdek mulkdorning mulkini olib qo`yish yoxud uni o`z mol-mulkiga bo`lgan huquqidan voz kechishga majburlash, oz miqdordagi talon-toroj alomatlari mavjud bo`lmasdan taqdirda ma`muriy javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Mazkur Kodeksning 241-11-moddasida esa ko`chmas mulkni buzib tashlash tartibini buzish, ya`ni olib qo`yilayotgan er uchastkasidagi tadbirkorlik sub`ektlariga tegishli binolarni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki buzib tashlaganlik uchun, agar bu ish dov-

daraxtlarni buzib tashlaganlik uchun, agar bu ish zararning o`rmini mazkur mol-mulkning bozor qiymati bo`yicha oldindan va to`liq qoplamagan holda sodir etilgan bo`lsa, ma`muriy javobgarlik joriy qilindi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi ham “Xususiy mulk huquqini buzish” deb nomlangan 192-1-modda bilan to`ldirildi. Unga binoan, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan xususiy mulkdorlarning huquqlarini buzish yo`li bilan ularga zarar etkazish, ya`ni mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum etish, xususiy mulkka tajovuz qilish, nomaqbulligi oldindan ayon bo`lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan, mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish, shuningdek mulkdorning mulkini olib qo`yish yoxud uni o`z mol-mulkiga bo`lgan huquqidan voz kechishga majburlash, talon-toroj alomatlari mavjud bo`lmagan taqdirda, shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo`llanilganidan keyin sodir etilgan bo`lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi. Mulkiy munosabatlarda ko`chmas mulklar o`ziga xos xususiyatga ega bo`lib, bunda ko`chmas mulk o`zining huquqiy tabiatи va qiymati jihatdan ham boshqa mulklardan ajralib turadi. Shu sababli O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi olib qo`yilayotgan yer uchastkasidagi uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki ekinlarni buzib tashlashga zararning o`rni bozor qiymati bo`yicha oldindan, to`liq qoplanguliga qadar yo`l qo`yimasligini nazarda tutuvchi alohida norma bilan to`ldirildi. Muxtasar qilib aytganda, Konstitutsiyamiz va amaldagi qonun hujjalrimizda xususiy mulkning daxlsizligi va huquqiy himoyasini ta`minlash mexanizmi bilan bog`liq normalar to`liq tajassum topgan bo`lib, bu, o`z navbatida, mulkdorlarning hamda xususiy mulk egalari huquqlarini samarali amalga oshirishga huquqiy kafolat sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan tizimli va bosqichma-bosqich islohotlar natijasida O`zbekiston keyingi

yillarda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo‘yicha jahondagi yetakchi o‘nta mamlakat qatoridan joy oldi. Yurtimizda 2016 yilning 1 oktabrigacha bo‘lgan ma’lumotga qaraganda, fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olmaganda, 230 mingdan ortiq kichik biznes subyektlari faoliyat olib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar bir yilda qariyb 4800ga yaqin kichik biznes subyektlari tashkil etilganligida o‘z samarasini ko‘rsatdi-qo‘ydi. Agar istiqlolning dastlabki yillarida respublikamiz yalpi ichki mahsulotida tadbirkorlik va xususiy biznesning ulushi bir foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, o‘tgan 25 yil mobaynida bu ko‘rsatkich 56 foizdan oshdi.

Bugungi kunda yurtimizda ish bilan band aholining 80 foizga yaqini aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Har yili mamlakatimizda yaratilayotgan bir millionga yaqin ish o‘rnining katta qismi aynan tadbirkorlik, xususiy biznes hissasiga to‘g‘ri kelayapti. Mazkur dalillarning o‘ziyoq tadbirkorlar va xususiy mulk egalari mamlakatimiz hayotida hal qiluvchi kuchga, iqtisodiyotimizning yetakchi bo‘g‘iniga aylanganini yaqqol tasdiqlaydi. Shunday ekan, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada yuqori darajaga ko‘tarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta’minalash, xususiy mulk himoyasining va daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi byurokratik to‘sqliarni bartaraf etish hamda respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga obyektiv zarurat yuzaga kelgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning 5 oktabrda imzolangan “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilar-monlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi<sup>1</sup> Farmon bu

---

<sup>1</sup> “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilar-monlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon – lex uz.

borada ko‘pchilik tadbirkorlarni o‘ylan-tirib, tashvishlantirib, qiyab kelayotgan muammolarni to‘liq bartaraf etishga qaratilganligi, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini yanada ravnaq toptirish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlari va davlat organlarining birinchi darajali vazifalari belgilab berganligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur Farmon keng jamoatchiligidan, aholining barcha qatlamlari vakillarining jo‘shqin e’tirofiga sazovor bo‘ldi, hamda xalqimiz tomonidan xayrioxlik bilan kutib olindi va keng muhokama qilinmoqda. Farmon bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka juda keng erkinlik berilmoqda, ularning faoliyatiga davlat organlarining noqonuniy aralashuvi tubdan qisqartirilmoqda, tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlari va davlat organlarining birinchi darajali vazifalari belgilab qo‘yilganligi bilan mazkur Farmon uning muqaddam qabul qilingan shu toifadagi normativ-huquqiy hujjatlardan keskin farq qiladi. Unga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartish, tadbirkorlik faoliyatida huquqbazarliklarning barvaqt oldi olinishini ta’minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbazarliklarga yo‘l qo‘ymaslik tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi va davlat organlarining birinchi darajali vazifalari etib belgilab qo‘yildi. Shu maqsadda davlat organlariga, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalarga aniq vazifalar yuklatildi<sup>1</sup>.

Shu zayl kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, birinchidan, fuqarolarning tadbirkorlikda erkin ishtirok etishi uchun mutlaq kafolatlarning yaratilishida; ikkinchidan, tadbirkorlikning davlat tomonidan rag‘batlantirib borilishida; uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatiga davlat organlarining

<sup>1</sup> “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilar-monlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon – lex uz.

aralashuvini maksimal darajada qisqartirilishida, ularga umuman halaqit berilmasligida; to‘rtinchidan, tadbirkorlar davlat organlari tarafidan hech qanaqa bosim yoki salbiy ta’sirni his qilmaydigan, tadbirkorlik yo‘nalishidagi tashabbuslar har taraflama rag‘batlantirilidigan muhitning yaratilishida; beshinchidan tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi prinsipi nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan so‘zsiz amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Farmon bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berishning huquqiy kafolatlari va ularni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Xusan, Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil institutini tashkil etish tavsiya etildi va mazkur Institutga aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berilishini ta’minalashga qaratilgan muhim vakolatlar berildi. Darhaqiqat, xorijiy davlatlar tajribasida ham kamdan-kam uchraydigan mazkur tuzilma huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlardan mustaqil bo‘lib, uning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida tashkil etilishi ham, shak-shubhasiz, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berishning muhim kafolatlari sifatida 2017 yilning 1 yanvaridan e’tiboran tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinishini ko‘rsatish lozim. Shu o‘rinda yuridik shaxslar tugatilayotganida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo‘yicha bergen murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga muvofiq o‘tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno ekanligini aytib o‘tish kerak<sup>1</sup>. Qolaversa, mazkur muhim normativ-huquqiy

<sup>1</sup> “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilar-monlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon – lex uz.

hujjatda shu sanadan (2017 yilning 1 yanvaridan)<sup>1</sup> boshlab, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinishi, moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbazarlik sodir etgan tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlari yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplagan taqdirda, bundan insonning sog‘lig‘i va hayotiga zarar yetkazilgan holatlar mustasno, ma’muriy va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo‘llanilishidan ozod etilishi, noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslar huquqbuzarlik aniqlangan kundan e’tiboran bir oy muddatda yetkazilgan zararning o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va ruxsat etuvchi zarur hujjatlarni rasmiylashtirgan bo‘lsa, ma’muriy va jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo‘llanilmasligi kabi chora-tadbirlar nazarda tutilganligining o‘ziyoq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun naqadar qulay shart-sharoitlar yaratib berish mo‘ljallanayotganidan dalolatdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berilishining muhim kafolati sifatida Farmonda mutassadi tashkilotlarga bank faoliya-tini tartibga solishning zamonaviy prinsilari va mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga, birinchi navbatda, kredit siyosatiga ma’muriy aralashuvlarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslik, mijozlarning o‘z pul mablag‘larini erkin tasarruf etish huquqi to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta’minlashga qaratilgan tag-zaminli, puxta va asosli takliflar ishlab chiqish vazifalari yuklatilganligini ko‘rsatish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda bizda bank tizimini erkinlashtirish, isloh qilish va uning tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirish borasida

---

<sup>1</sup>. /// hhh www Statiska uz.

amalga oshirilayotgan islohotlar Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Chunonchi, dunyoning 189 ta mamlakati orasida “Kreditlar olish indeksi” bo‘yicha O‘zbekiston 42-o‘rinni egalladi. Albatta, keyingi davrda ham bu boradagi islohotlar takomillashishda davom etadi, tadbirkorlarning bank xizmatlarini ko‘rsatish borasidagi imkoniyatlar yanada kengayadi. Biroq hozirgi kunda banklarning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida, jumladan tijorat banklari kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, pirovardida banklarning boshqaruv tizimini xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Undan tashqari, tadbirkorlarga kreditlar ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish, aytaylik, mijozlarning bankka bormasdan masofadan turib elektron ariza orqali tijorat banklariga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish taqozo etiladi. Shu maqsadda, axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda, bank mijozlariga qo‘srimcha qulayliklar yaratish, mijozlarning eksport-import operatsiyalari bo‘yicha o‘z hisobvaraqlaridagi chet el valyutasidagi to‘lovlarini bankka kelmasdan turib, masofadan amalga oshirish imkoniyatini yaratish ham shu kunning talabiga aylandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlikning berili-shida Farmonda belgilangan, respublikaning eksport salohiyati o‘sishini, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni va mahalliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishni rag‘batlantiradigan valyutani tartibga solishning va valyutalar kursi siyosatining ilg‘or bozor mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Farmonda belgilangan mazkur vazifa samarali ijro etilishini ta’minalash uchun mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish va mahsulot eksport qiluvchi korxonalarining ehtiyojlarini qondirish masalasiga alohida e’tibor berish talab etiladi. Shu ma’noda mamlakatimizning yetakchi tijorat banklari tomonidan xalqaro moliya tashkilotlarining, xususan, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Koreya Eksimbanksi, Xitoy taraqqiyot banki va boshqa qator xorijiy moliya institutlarining chet el valyutasidagi mablag‘larini jalb etish, investitsiyaviy kreditlarni yo‘naltirish ishlarini

tadbirkorlar uchun ham, mamlakat eksport salohiyatini oshirish uchun ham yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish borasida Xalqaro taraqqiyot va tiklanish bankining kredit liniyasi hisobidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratilishi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki qoshidagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash fondi tomonidan tadbirkorlarning xorijga mahsulot eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirish ishlarining kuchaytirilishi bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan hisoblanadi.

Farmoning yana bir muhim jihatni unda huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta’minalash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslikdavlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi va davlat organlarining bиринчи darajali vazifalari sifatida nazarda tutilgan. Ta’kidlash kerakki, boshqa sohada bo‘lgani kabi iqtisodiyot sohasida ham huquqbuzarliklarning oldini olish muhim amaliy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zero tadbirkorlik faoliyatida qonunbuzarliklarning oldi olinishini ta’minalash jamiyatning iqtisodiy negizini mustahkamlaydi, bu sohada sog‘lom muhit yaratilishining hamda jamiyatda qonuniylikni ta’minalashning muhim kafolati sanaladi. Darhaqiqat, tadbirkor o‘z faoliyatida bilib-bilmay yo‘l qo‘ygan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishdan yoki unga nisbatan moliyaviy choralar qo‘llanilishidan ko‘ra, ushbu huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishidan manfaatdor bo‘lganidek, davlat organlari ham bu kabi huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta’minalash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmasligidan manfaatdor bo‘lishi inobatga olinganligi mazkur Farmoning muhim jihatlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan Farmonda iqtisodiyot sohasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta’minalash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslikning huquqiy

asoslarini takomillashti-rishning aniq mexanizmlarini nazarda tutuvchi bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonda nazarda tutilganidek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berishga taalluqdar qo’shimcha imtiyozlar va yengilliklar, ma’muriy va jinoyat qonunchiligin liberallashtirish borasidagi tadbirlar belgilash,tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha davlat organlari, eng avvalo huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalar zimmasiga mas’uliyat va vazifalar yuklash dunyoning kamdan-kam mamlakatlari qonunchilik amaliyotida uchraydi. Mazkur Farmonning amalga oshirilishi mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilinishi, va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yuqorida darajaga olib chiqish orqali iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga, aholining farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xususiy mulning rivolanishi uchun davlat imkoniyatlar yaratibgina qolmay unga nisbatan doimiy nazoratni ham amalga oshirib boradi. Nazorat iqtisodiyotni va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan bir hisoblanadi. Davlat nazorati davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan uni davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida qarash lozim. Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati ustidan davlat nazorati deganda, tijorat va notijorat tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar talabiga rioya qilinishi ustidan tekshirish va kuzatish tizimi tushuniladi. Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati ustidan davlat nazoratini davlat organlari, shu jumladan prokuratura organlari o‘z vakolatlari

doirasida amalga oshiradilar. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

a) nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkorlik, ya'ni boshqa shaxslarning xohishi va istaklaridan, ularning sub'ektiv irodalaridan qat'i nazar, tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan suiiste'molliklarsiz tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida tekshirishlar o'tkazishni tartibga soluvchi qonun normalari asosida amalga oshirishlari lozimligi;

b) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Tadbirkorlik sub'ektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim".

v) tadbirkorlik sub'ekti huquqlarining ustuvorligi, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik sub'ektining foydasiga talqin etiladi;

g) tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashmaslik.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashmaslik deganda nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik sub'ektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emasligi tushuniladi. Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o'zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq chora-tadbirlarni ko'rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi

organlarning mansabдор shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan tadbirkorlik sub'ektlarining boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas. Mahalliy davlat hokimiyati organlari dehqon va fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga, shu jumladan ularning agrotexnika usullarini, etishtiriladigan mahsulot turini tanlashiga, ana shu mahsulotning bahosini hamda realizatsiya qilish yo'nalishini belgilash ishlariiga aralashishga haqli emas, davlat ehtiyojlari uchun mo'ljallangan xaridlar bundan mustasno.

Nazorat qiluvchi organlar mansabдор shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa harakatlari natijasida tadbirkorlik sub'ektiga etkazilgan zararlar, shu jumladan, boy berilgan foya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari birlashmalarining a'zosi bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlar tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari so'roviga ko'ra mazkur birlashmalar vakillari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati ustidan davlat nazoratining huquqiy asoslari Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlar

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida",

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (yangi tahriri),

"Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida",

"Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartibtaomillari to'g'risida"gi qonunlari,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 mayda qabul qilingan "Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati to'g'risida"gi 222-II-sonli Qarori,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 8 avgustdagи “Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-1503-son,

1998 yil 19 noyabrdagi “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to‘g‘risida”gi PF-2114-son,

2005 yil 14 iyundagi “Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3619-son,

2005 yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3665-son farmonlari va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), soliq tekshiruvi orqali amalga oshiriladigan davlat nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tomonidan 2006 yil 11 martdagi 06-01-01-son qarori bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 6 mayda 1573-son bilan ro‘yxatga olingan “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan, tadbirkorlik sub’ektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to‘g‘risida” Nizom (yangi tahriri) bilan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tekshirishlarni tashkil tartibi belgilangan. YUqorida qayd qilingan qonun hujjatlarini qo‘llashda tadbirkorlik sub’ektlariga yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida moratoriylar belgilash amaliyoti ham joriy qilingan.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4609-son Farmoniga muvofiq soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarini o‘z

vaqtida to‘laydigan, shuningdek ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur’atlarini va rentabelligini ta’minlovchi kichik tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soliq tekshiruvidan o‘tkazishga qo‘llanilgan moratoriy 2017 yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan muddatgacha uzaytirilgan (yuridik shaxslarni tugatishdagi, qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar doirasidagi, shuningdek byudjet va markazlashtirilgan mablag‘lar va resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq rejadan tashqari tekshiruvlar bundan mustasno). Davlat nazoratini xorijiy tajribada ko‘radigan bo‘lsak, yuqori rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, bir nechta asosiy rivojlanishga doir muhim omillar ko‘zga tashlanadi. Birinchidan – bu biznesga ma’muriy ta’sirni choralarini kamaytirilishi, unga katta erkinlik yaratish. Davlat siyosati muhim iqtisodiy sektorlarni yuqori darajada qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilganligi. Ijtimoiy tarkib doimo yuqori e’tibor ostida.

Misol uchun, AQSHda kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga uning faoliyatiga davlat ko‘magi, ya’ni turili xil aralashuvining kamayishi sabab bo‘ldi. Bu erda tabiiy tanlov asosida keljak biznes sardorlari shakllantiriladi. YUqori darajada soddalashtirilgan yangi korxonani ro‘yxatga olish tizimi. U bir kun vaqt oladi va 5 dan 10 dollargacha summasida amalga oshiriladi

Demak, tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni tashkil qilishni yanada tartibga solish, tekshirishlar sonini kamaytirish, turli nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshirishlarda parallelchilik va takrorlash faktlarini bartaraf etish, ularning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga iqtisodiy zarar etkazuvchi asossiz aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, shuningdek tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadga muvofiqliр.

## **2.2 YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIK VA UNING IMKONIYATLARI**

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi bu erda tadbirkorlikning qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Ayni paytda iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari ulushining ko‘payib borishi bilan belgilansa, shu soha ulushining kundan-kunga ortib borishi esa, o‘z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan tizimli islohotlar samarasini respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar misolida ham ko‘rish mumkin.

SHunisi ham e’tiborga molikki, hozirda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subektlari orasida yuridik shaxs tashkil etmasdan yakka tartibda tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tayotganlar ko‘philikni tashkil qilmoqda.

Xususan, 2018 yilning 1 mart holatiga yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganlar soni 199 974 tani tashkil etdi va bu ko‘rsatkichning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 34 830 taga ko‘payganligi yuqorida fikrimizning yaqqol dalilidir.

Buning asosiy sababi shuki, respublikamizda yuridik shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini moliya-xo‘jalik faoliyatining hisobot davridagi natijalariga muvofiq holda to‘lansa, yakka tartibdagi tadbirkorlar qat’iy belgilab qo‘yilgan soliq to‘lovlarini amalga oshiradilar. YA’ni, tadbirkorlik subekti oy davomida ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar belgilangan, muayyan to‘lovdan chetga chiqmaydi. Soliqlar tadbirkorning faoliyat turi va uni amalga oshirish joyiga qarab eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Buning ustunlik tarafi shundaki, to‘lov tushum summasiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Bugungi kunda yakka tartibdagi tadbirkorlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati»dagi barcha faoliyat turlarini amalga oshirishlari mumkin. Buning uchun yakka tartibdagi tadbirkorga qator imkoniyatlar yaratilgan, xususan, u o‘zini ijtimoiy sug‘urta qildirish, ish davrlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat stajiga hisoblatish huquqiga ega.

Bank muassasasida hisob raqamiga ega bo‘lish huquqi, muhr va shtampning borligi xususiy tadbirkorga xo‘jalik faoliyatining to‘laqonli subekti bo‘lish, yuridik shaxslar bilan shartnomaga asosidagi munosabatlarga kirishish imkoniyatini beradi. SHuningdek, u hisobot topshirishda interaktiv xizmatlardan foydalanishi, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtiroy etishi mumkin.

Ayniqsa, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun bir qator soliq imtiyozlari berilganligi alohida e’tiborga molik. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 311- va 375-moddalariga asosan, yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik subekti qat’iy belgilangan soliq va sug‘urta badallarini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lashi belgilangan.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan bandligini ta’minlash va ularga o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yib olgunlaricha sharoit yaratish maqsadida, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari o‘qishni tamomlagandan keyin o‘n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan e’tiboran qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan olti oy muddatga ozod etilgan. Bu o‘z navbatida yosh tadbirkor uchun ushbu davrda faoliyatini rivojlantirib olishida katta turki bo‘ladi.

Biroq, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tilgan paytdan boshlab o‘n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan yoki faoliyat uch va undan ko‘p oyga

to‘xtatilgan taqdirda, qat’iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to‘lanadi.

YAna bir imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi «Tadbirkorlik subektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2844-sonli qarori bilan berildi. Ushbu qarorga asosan, 2021 yil 1 yanvarga qadar mazkur qarorning 1-ilovasida qayd etilgan 18 ta faoliyat turlari (asosan maishiy xizmatlar) bilan shug‘ullanadigan yangi ro‘yxatga olingan yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subektlari ushbu qarorda ko‘zda tutilgan qoidalarga binoan mikrokreditlarni rasmiylashtirishda 6 oy muddatga qat’iy belgilangan soliq to‘lovidan ozod etiladi.

YAkka tartibdagi tadbirkorlar bir necha faoliyat turi bilan shug‘ullanishlari mumkin. Buning uchun ularga boshqa bir xodimlarni ishga jalb qilish zarurati yuzaga keladi. SHu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4725-sonli Farmoniga asosan, 2015 yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida sug‘urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to‘lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi.

SHuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan holatda kollejni bitirgandan boshlab o‘n ikki oy mobaynida yollanma ishchilar uchun belgilangan soliqdan ozod etilgan.

Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagagi 219-sonli qarori qabul qilinib, «Xususiy tadbirkorlar tomonidan

xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomga asosan, xususiy tadbirkor tomonidan uning bilan mehnat munosabatlari o‘rnatgan va tuzilgan mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlarni bajaradigan xodimga to‘lanadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlaridan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i olinmaydi.

YAkka tartibdagi tadbirkor tomonidan nafaqaga chiqqan shaxslar yoki yollangan holda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda ham imtiyozlar nazarda tutilgan. Masalan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari hisoblanadigan xodimlar uchun sug‘urta badali miqdori har bir xodim uchun belgilangan miqdorning 50 foizini tashkil etishi kerak.

YA’ni, har oyda eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida belgilangan. Ushbu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi. Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga huquq paydo bo‘lganda yoki to‘xtaganda sug‘urta badallarini qayta hisoblash ushbu huquq paydo bo‘lgan yoki to‘xtagan oydan boshlab amalga oshiriladi.

Agar, xususiy tadbirkor qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan qonunchilikka muvofiq vaqtinchalik ozod qilingan hollarda, mazkur imtiyoz qat’iy belgilangan soliqni har bir xodim uchun to‘lashga ham tatbiq etiladi.

SHuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5270-sonli Farmoniga asosan 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab faoliyat ko‘rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat’i nazar, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun –

bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi o'rnatildi.

Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq yukini yanada kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 3454-sonli qaroriga asosan qat'iy belgilangan soliq stavkalari o'rtacha 30 foizga pasaytirildi hamda tadbirkorlik subektlariga ularning faoliyatini amalga oshiradigan hududiga qarab ajratgan holda soliqqa tortish tartibi belgilandi.

Masalan, 2017 yilda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bilan chakana savdo qilish uchun qat'iy belgilangan soliq miqdori Toshkent shahri uchun eng kam ish haqining 10 barobarini hamda viloyatlar markazlarida 6,5 barobarni tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilda Toshkent shahri uchun eng kam ish haqining 7 barobari va viloyatlar markazlarida 5 barobari miqdorida belgilandi.

YUk tashish xizmatlari uchun avtomobilarning yuk ko'tarish hajmiga (tonnasiga) qarab 2017 yilda eng kam ish haqining 2-4 barobar miqdorida belgilangan bo'lsa, 2018 yildan 1,5-3,5 barobar qilib belgilandi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra ushbu imtiyoz natijasida tadbirkorlar ixtiyorida 86 milliard so'm miqdordagi mablag' qolishi kutilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur imtiyoz va preferensiyalar mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, sohani yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, yangi ish o'rnlari ochish bilan birga, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishni rag'batlantiradi.

## **2.3 Tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatini boshqarishda Innovatsion yondashuv**

Korporativ boshqaribda rahvarlik qilish bilan bog`liq vazifa va majburiyatlarini, kuzatuv kengashining o`rni haqida umumiylumot va mustaqillikni ta`minlash uchun qo`yilgan talab asosida, shundan so`ng kuzatuv kengashining asosiy faoliyat yo`nalishlari biznesnida innovatsion o`zgarishlar qatoriga kiradi. Ushbu tajriba AQSH korporattsiyalaridagi kuzatuv kengashining tamoyillarining mamlakatimiz tadbirkorlari tomonidan o`zlashtirilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Korporativ boshqarib tamoyillari” deb nomlangan hujjatida boshqarib (Kuzatuv) kengashi vazifalari haqida quyidagicha bir fikr ilgari suriladi:

- Korporativ boshqarib tuzilishi kompaniyaning strategik yo`l-yo`rig`ini, kuzatuv kengashi tomonidan boshqaribni samarali monitoring qilishni, kuzatuv kengashining kompaniya va aktsiyadorlar oldida hisobdorligini ta`minlashi lozim.

Bu fikrdan, kuzatuv kengashi ham konsultatib ham nazorat funktsiyalarini bir vaqtida ta`minlashi lozimligi kelib chiqadi. Bu mas`uliyatlar ko`p jihatdan bog`liq bo`lsa-da, ular tubdan farq qiladigan jihatlari ham bor. Maslahatchi sifatida, kuzatuv kengashi kompaniya strategik va operativ yo`nalishiga ma`mul bo`lgan boshqarib bilan maslahatlashadi. E`tibor xavf va mukofotni mubozanatda ushlab turadigan qarorlarga qaratiladi. Kengashi a`zolari ular tegishli sanoat sohasi yoki vazifasidagi oldingi tajriva, shu jumladan, bu maqsad uchun taklif mahorat va tajriva asosida tanlanadi.

Nazoratchi sifatida, kuzatuv kengashi boshqaribni nazorat qilishi(kuzatib borishi) va uni aktsiyadorlarning manfaatlariga sidqidildan faoliyat olib borishini kafolatlashi lozim. Kuzatuv kengashi bosh ijrochi direktorni ishga oladi va ishdan bo`shatadi, korporativ ish faoliyatini belgilaydi, korporativ ish faoliyatini amalga oshirish uchun boshqaribni xissasini va taqdirlashni vaholaydi. Kuzatuv kengashi, shuningdek, huquqiy va normativ audit jarayonida, shu jumladan, ommabiy

kompaniyalar uchun talablarni va maxsus sanoat qoidalarga rioya etilishi yuzasidan hisobotlarni nazorat qilib boradi. Bu vazifalarni vajarishda, kuzatuv kengashi asosan huquqiy maslahatchi va tashqi auditorlar, ijro etubchi xodimlar, kompensatsiya maslahatchilari, inbestitsiya kiritgan vankirlar va soliq maslahatchilar kabi boshqa haq to`lanadigan professional kasb egalariga tayanadi. YUqorida ta`kidlab o`tilgan ham maslahat ham nazorat vazifalarini to`liq mohirlik bilan vajara oladigan kuzatuv kengashi a`zolari samarali hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi Direktorlari mas`uliyati boshqaribdan alohidadir va shu xususiyati bilan ajralib turadi. Direktorlardan korxonaning korxonaning uzoqqa mo`ljallangan korporativ strategiyasini yoki bo`lmasa korxonaning moliyabiy xisovatlarini ishlab chiqish, tayyorlash emas, valki korporativ strategiya bo`yicha asosli maslahat, takliflar berish, moliyabiy xisovatlarning to`liqligi va haqqoniyligini ta`minlash kutiladi. Kuzatuv kengashi boshqaribning bir kengaytirilgan shakli yoki tuzilmasi emas, valki aktsiyadorlarning manfaatlarini ifoda etubchi boshqarib organi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, kuzatuv kengashi a`zolari korxona faoliyatida xizmat qilish borasida o`zlarining o`rnini to`g`ri tushunadi. Xususan, ulardan foydalilik va aktsiyadorlar ishonchidan so`ng nimaga eng ko`p e`tibor qaratish kerak deb so`ralganida, o`z faoliyatlarida kelajakda o`sish, xatarlar boshqaribi va inson kapitalani ribojlantirishni o`zlarining uch ustun maqsadlari sifatida ko`rsatishgan. E`tibor beriladigan boshqa sohalar madaniy riboqlanish, ijrochilar kompensatsiyasi va tartibga bo`ysunishni o`z ichiga oladi. Hozirgi kungacha va`zi faktlar, asoslar kuzatuv kengashi diroektorlari nazorat qilish, kuzatuv funktsiyasiga qaraganda konsultatib funktsiyani afzal ko`rishidan dalolot bermoqda. Ijtimoiy so`robda ulardan qaysi masalalarni muhokama qilishga eng ko`p vaqt sarflagan bo`lishi so`ralganida, direktorlar strategik rejalashtirish, raqovat va muqobil variantlar ichida muvaffaqiyatli rejalashtirish deb ko`rsatishgan. Bungari qarama-qarshi tarzda ko`pchilik direktorlar ijrochilar

kompensatsiyasi, ijroni kuzatish, nazorat qilish, tartib va rioya masalalariga bir xil yoki kamroq vaqt sarflashni xohlashadi.

**Boshqaruvning mustaqilligi.** Konsultatib va nazorat funksiyasi samarali bo`lishi uchun kuzatuv kengashi a`zolari o`z mustaqilliklarini namoyon etishi lozim. Tartibga solish nuqtai nazaridan olib qaralganda direktorning mustaqilligi uning faqatgina firma manfaatida faoliyat yuritishiga ta`sir qiladigan nizolardan qay darajada xoliligi bilan vaholanadi. Mustaqillik juda muhim bo`lib, kerak bo`lganda boshqaribga nisvatan muxolif mabqeda bo`lishni ham ta`minlashi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ko`chmas mulk birjasи aktsiyadorlik kompaniyalaridan ko`proq mustaqil direktorlarga, shuningdek, yagona mustaqil audit, kompensatsiya, kadr(nomzod) va boshqarib qo`mitalariga ega bo`lishni talab qiladi.

SHunga qaramay, tartibga solubchi standardlar haqiqiy mustaqillik singari bir xildek zarur emas. Boshqarib bilan aloqada uzoq yillar dabomida ishlagan va u bilan ipsiz bog`langan direktorlar haqiqiy mustaqillikni ko`rsatishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimoldan holi emas. Mustaqillik darjasи, shuningdek, kuzatuv kengashi a`zolarining ijtimoiy kelib chiqishi, ma`lumoti, tajrivasи, qimmatliklar orientatsiyasi va boshqaribga shaxsiy aloqasi kabi individual omillarga bog`liq rabishda quyiga tushishi mumkin. Zero, amaliyotda keyinchalik zararli bo`lib chiqqan boshqaribning qarorlariga qo`shilgan juda salohiyatli direktorlardan tashkil topgan kuzatuv kengashlari uchrab turadi. Masalan, ENRON kuzatuv kengashi keyinchalik jinoiy qilmish sifatida vaholangan boshqaribning harakatlarini jiloblashda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. O`xshash tarzda, Disney kompaniyasi kuzatuv kengashi aktsiyadorlarning jiddiy tanqidiga savab bo`lgan ijrochi direktor Maykl Obitsni ishga olishda va ishdan bo`shatishda boshqaribga ojizlik qilgan. Bu holatlar kuzatuv kengashi a`zolarining formal mustaqillik standardlari haqiqiy mustaqillikka teng degan fikrga ishonmasligidan gubohlik beradi. Garvard Biznes maktabi professorlari tomonidan o`tkazilgan

norasmiy tadqiqot ishga aloqador tajrivani tartibga solubchi talablardan ko`ra direktor sifatini belgilobchi muhim indikator deb vaholagan. Tadqiqot qatnashchilaridan biri: “Men mustaqillik hamma joyda odamlar u haqda o`ylagan muxim darajada deb o`playman. Bu maqsaddan uzoqlashish”. SHunga qaramay, ko`pchilik direktorlar mustaqillikni ta`minlashda layoqatli ekanliklariga ishonadi. Korporate Board Member jurnali tomonidan o`tkazilgan so`robda, 85 foiz direktorlar va luarning kuzatuv kengashidagi hamkasblari kerak bo`lganda boshqaribga samarali qarshilik ko`rsatishlarini bildirgan.

Kuzatuv kengashi (boshqaruv) raisi kengash yig`ilishlariga raislik qiladi. Rais kun tartibini, yig`ilishlar jadvalini tuzish, uchrashublar rejalashtirish va kuzatuv kengashi qo`mitalari faoliyatini mubofiqlashtirish uchun ma`sul hisoblanadi. SHuningdek, kuzatuv kengashi raisi kuzatuv kengashi muhokamasiga masalalar kiritilishidan oldin ularning mazmuni va olib kirish vaqtini belgilash orqali boshqarib ustidan kuchli ta`sirni ushlab turadi.

An`anaga ko`ra, bosh ijrochi direktor ko`pchilik AQSH korporatsiyalarida ayni bir vaqtda kuzatuv kengashining raisi sifatida xizmat qilgan. So`nggi yillarda, ammo, boshqarib a`zosi yoki ijrochi direktor bo`limgan kuzatuv kengashi a`zolarining rais sifatida xizmat qilishi umumiy holatga aylandi. Kuzatuv kengashining konsultatib va nazorat vazifalarini hisobga olib, ikki rahvarlik bosh ijrochi direktor va kuzatuv kengashi raisligidan bir qancha ziddiyatli holatlar kelib chiqishi mumkin. Ular o`rtasida kuzatuv kengashi raisi boshqarib va kuzatuv kengashiga alohida berilgan vakolatlarni birlashtirish orqali mustaqil ijrochi direktorlarni ishga olish, tizimli rejalashtirish, kompensatsiya, ish faoliyatini vaholash sohalarida kuchsizlangan kuzatuv kengashining potentsialini ko`rsatib beradi. Ayni vaqtda ikki hokimlik: kuzatuv kengashi raisi/bosh ijrochi direktor korxona doirasida aniq, puxta qaror qabul qilish borasida yakka rahvarlikka nisvatan potentsial ustunliklar taklif qiladi.

Kompaniyalardan har bir mustaqil ijrochi direktor kuzatuv kengashining bir yig`ilishiga “Raislik etubchi direktor” sifatida xizmat olib borishini talab qilishini belgilab qo`ydi. Raislik etubchi direktor har bir yig`ilishda yoki qayta tayinlangunga qadar dabomiy tarzda xizmat qilishi uchun tayinlanishi mumkin. Rahvarlik etubchi direktorning o`rni bosh ijrochi direktor bilan muhokamalarda, suhvatlarda mustaqil direktorlarni vakili hisoblanishidan iborat. Bu tuzilmadan ko`zlangan maqsad ikki hokimlikka asoslangan kompaniyalar orasida mustaqil obzorni kuchaytirish, mustahkamlashdir.

Kuzatuv kengashi harakatlari kengash yig`ilishlarida yoki yozma roziligi, kelishubi bilan ham bo`lib o`tadi. Kengashi yig`ilishida, qarorlar kengashga taqdim etiladi va qaror loyihasi borasida oboz beriladi. Qaror ko`pchilik obozi bilan maqullanganda harakat yakunlangan hisoblanadi. Kuzatuv kengashi yozma kelishub tuzish orqali faoliyati yuritganida yoki biron bir harakatni vajarganida yozma qaror loyihasi kuzatuv kengashi a`zolariga imzo qo`yib tasdiqlash uchun tarqatiladi. Direktorlar ko`pchiligi tomonidan hujjat imzolansa protsess yakunlangan hisoblanadi. YOzma kelishub yo`li bilan amalga oshiriladigan kengash harakatlari oldindan ogohlantirishni talab qilmaydi, shu savabli yozma kelishublar kengashi yig`ilishlarida qabul qilingan xatti-harakatlardan tezroq sodir bo`ladi.

To`liq tarkibdagi kuzatuv kengashi yig`ilishlarida ishtirok etishdan tashqari mustaqil ijrochi direktorlar yilda kamida bir marta bo`ladigan ijro masalalariga vag`ishlangan ijrochi direktorlar ishtirok etmaydigan yopiq majlisda yig`ilish/majlis o`tkazadi. Bu yig`ilishlarda rasmiy biron-bir harakat amalga oshirilmasada ushbu yig`ilishlar tashqi direktorlarga boshqarib faoliyatini, uning natijalarini, ichki nazoratni va uzluksiz rejalashtirishni ochiq-oshkora muhokama etishga imkoniyat beradi. Raislik etubchi mustaqil direktor bu yig`ilishlarda majlisga rahvarlik qiladi.

Direktorlar kuzatuv kengashi masalalari bo`yicha xavar berish, ma`lumot berishga oyiga taxminan 20 soat sarflashadi. Odatda, bir yig`ilish/majlis ikki va olti soat o`rtasida dabom etadi, biroq ayrimlari sakkiz soat ham dabom etadi. So`nggi yillarda ortgan normativ talablar kuzatuv kengashi yig`ilishlarini ancha uzayishiga savab bo`lgan. SHunday bo`lsa-da, ko`pchilik direktorlar kun tartibi o`z vaqtlaridan unumli foydalanish uchun tuzilgan deb hisoblab, oyiga 20 soat o`z vazifalarini vajarishga etarli deb ishonishadi.

O`z qarorlarini e`lon qilish, etkazish uchun kuzatuv kengashi boshqarib tomonidan taqdim qilingan materiallarga tayanadi. So`rob natijalari bu axborot ma`lumotning sifati talab darajasi, etarli darajada bo`lmasligidan darak beradi. Misol uchun, Deloitte Konsulting tomonidan o`tkazilgan tadqiqotda garchi direktorlarning 91 foizi kompaniyaning moliyabiy natijalar haqida yaxshi yoki a`lo ma`lumot olganliklarini bildirgan bo`lsada, faqat 61% korxonaning operativ boshqaribi bo`yicha olingan ma`lumotlardan qoniqish hosil qilganligi aniqlangan. Bundan tashqari, direktorlarning yarmidan kamchiligi mahsulot sifati, innovatsion mahsulotlar, biznes hamkorlar va xomashyo etkazib berubchilar, mijozlar bilan ishslash, xodim vazifalarini o`z ichiga olubchi shu kabi muhim biznes sohalarda yaxshi yoki a`lo ma`lumot olishga ishonishgan. Kuzatuv kengashi a`zolari bu kamchiliklarni boshqarib menejmentidan moliyabiy va u bilan bog`liq bo`limgan boshqa hisovatlarni takomillashtirishni talab qilish yo`li bilan varataraf qilishi mumkin. SHuningdek, direktorlar ushbu holatda boshqarush bilan ko`proq to`g`ridan-to`g`ri dialogga, aloqaga kirishsa ham ancha foydali bo`ladi. Bir direktorning fikriga ko`ra esa “korporativ boshqaribning keyingi darajasini tashkil etubchi turli bo`g`inlari va tarmoqlari bilan bebosita kuzatuv kengashi o`rtasida o`zaro tashriflar, fikr almashishlar o`rnini hech nima bosa olmaydi.

Varcha korporativ masalalar to`liq kuzatuv kengashi tomonidan ko`rib chiqilmaydi. Va`zi masalalar qo`mitalarga yo`naltiriladi. Bu qo`mitalar mavzu

tabiatiga qarab, muvaqqat yoki doimiy faoliyat yuritubchi qo`mita bo`lishi mumkin. Direktorlar mutaxassisliklariga yoki malakasiga qarab qo`mitalarga biriktiriladi. Boshqaruvchilar bilan kompensatsiya shartnomalari loyixasini tasdiqlash, qo`mitalarga tabsiyalar kabi muhim masalalar kuzatuv kengashiga obozga qo`yilishdan oldin qo`mitada ko`rib chiqiladi. Qo`mita kuzatuv ken gashi oldida vajarishi lozim bo`lgan quyidagi burchlarni belgilab bergen o`z Nizomiga ega bo`lib, bu majburiyatlar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1. Moliyabiy hisobot va ma`lumotlarni oshkor etish jarayonini nazorat qilish;
2. Buxgalteriya siyosati va tamoyillarini tanlashni monitoring qilish;
3. Xodimlarni ishga olishni, ish faoliyatini nazorat qilish va tashqi auditorning mustaqilligi
4. Tartibga solubchi qoidalar, axloqni nazorat qilish va himoyachi (bhistleblober) ishonch telefoni;
5. Ichki nazorat jarayonini monitoringi
6. Ichki audit xizmati faoliyatini nazorat qilish;
7. Tavakkalchilik/xavf-xatarani boshqarishni muhokama qilish va boshqaribda qo`llash.

Ko`pchilik kompaniyalarda nomzodlik va boshqarib qo`mitalari quyidagi vakolatlar bilan yagona qo`mitaga birlashgan:

1. Kuzatuv kengashida xizmat qiladigan malakali shaxslarni aniqlash;
2. Xukumatda ishlaydigan yaxshi kadrlarni aniqlash
3. Yillik aktsionerlar so`robnomasidan oldin oboz berib qatnashadigan kandidatlar tanlobi
4. Mos bo`lgan konsultantlarni direktor qayta ko`rish jarayoni uchun ishga yollash
5. Korporatsiya uchun xukumat standartlarini aniqlash
6. Vaholash jamoa jarayonini boshqarish
7. Bosh rahvar vaholash jarayonini boshqarish

Nomzod va xukumat qo`mitasi o`rtacha yilliga to`rt marotava 1.9 soat uchrashadi. Bu komitetni mustaqilligiga qaramay, bosh rahvar har doim nomzod qilib tayinlangan jamoani qaroriga sezilarli ta`siri bor. Direktor ikki xil rol boshkarmasini olib boradi. Jamoa mustakil tarzda ko`shimcha gurux tuzish imkoniyatiga ega. Bu kabi komitetlar odatda ko`p funktsiyali kirralarni boshkaradi, shu uchun xam qo`shimcha nazorat talab kilinadi (maxsuslashtirilgan ko`mitalar).

Tadbirkorlik sub`ektlarini boshqarib tizimini tubdan o`zgartirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan biri bo`lib qoladi.

## Xulosa

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, bir birini to‘ldiradi. “Biznes” - so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, u tadbirkorlik ishi yoki boshqacha so‘z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Bitiruvchi malakaviy ishida yuqoridaagi fikrlar har tomonlama o‘rganildi va quyidagi xulosalarga kelindi;

1. Tadbirkorlik sohasida biznes foyda beradigan iqtisodiy faoliyat bo‘lib, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar biznesmen sifatida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, yalpi ichki mahsulotning ko‘payishiga, aholi faravonligining oshishiga xizmat qiladi.
2. Foya ko‘rish maqsadida, tavakkal qilib tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) bilan shug‘ullanish ixtisoslashgan faoliyatga aylangan taqdirdagina bunday faoliyatning ishtirokchilarini tadbirkorlar deb hisoblash mumkin.
3. Agar fuqaro bunday harakatlarni alohida hollardagina (vaqtı-vaqtı bilan) foyda ko‘rishiň o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymay amalga oshirgan taqdirda, masalan, o‘zidagi ortiqcha qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yoki keraksiz bo‘lgan boshqa ashyolarni sotishi, yoki ishlarni bajarib berish uchun shartlashib va u bajarilganligi uchun haq olinadigan bo‘lsa, bunday faoliyatni tadbirkorlik faoliyati deb bo‘lmaydi, chunki bu kabi munosabatlar fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 avgustda qabul qilgan “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ham xususiy tadbirkorlikni, avvalambor, mikrofirma va kichik korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning jadal rivojlanishi uchun qo‘sishimcha shart-sharoit yaratish, imkoniyatlarni kengaytirishga

qaratilganqarori asosida tashkil etilayotgan Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi zimmasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama ko'mak berish maqsadida qator vazifalar yuklatilmoqda.

5. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq xususiy sektorning taraqqiyotiga katta imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi va hozir ham yaratilmoqda. Jumladan,
  - tadbirkorlik huquqi subyektlarining mulkka nisbatan huquqlari,
  - tadbirkorlik (xo'jalik) shartnomalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari,
  - tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalash va kreditlash, ularni soliqqa tortish.
  - tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy himoya tizimi va javobgarlik asoslari to'liq o'z aksini topgan.
6. Tadbirkorlik biznes yuritish asoslari barcha shaxslar, jumladan xorijiy biznesmenlar uchun bir xil qilib belgilangan.
7. O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.
8. O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuning 5-moddasiga binoan tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:
  - yakka tartibdagi tadbirkorlik;
  - xususiy tadbirkorlik;
  - jamoa tadbirkorligi;
  - aralash tadbirkorlik.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 avgustda qabul qilgan “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi qarori ham xususiy tadbirkorlikni,

avvalambor, mikrofirma va kichik korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning jadal rivojlanishi uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish, imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilganqarori asosida tashkil etilayotgan Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi zimmasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga har tomonlama ko'mak berish maqsadida qator vazifalar yuklatilmoqda.

10. Davlat nazorati davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan uni davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida qarash lozim.

## **ADABIYOTLAR**

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2017. 71 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2012.
3. O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik protsessual kodeksi. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2011 yil, 4-son
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 1-son
5. O‘zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 37-son
6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “CHet el investitsiyalari to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2008 y., 52-son
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. -1998. - 9-son.
8. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 25-son
9. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Xususiy korxona to‘g‘risida” // 8-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 12-13-son.
10. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Raqobat to‘g‘risida” O‘RQ-319, 06.01.2012 // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.–2012. 1-son
11. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami –2012. 17-son

12. 188-modda.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘sishimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 14-son
13. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.– 2012. 18-son
14. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 39-son
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risidagi” 2006 yil 24 may PQ 357sonli. // O‘zbekiston Respublikasi qonunlar to‘plami 12-son.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Tadbirkorlik sub’ektlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2005 yil 14 iyundagi// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2005. -23-24-son.
17. -O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Tadbirkorlik sub’ektlarining xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to‘g‘risida”gi 2005 yil 24 iyundagi PF-3622-sonli // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2005 yil, 25-26-son,
- 18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PQ-2164-sonli, 2014 yil 15 aprel.
- 19.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2015
- 20.Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.2017.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b. (pdf 17.6Mb)
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.:O‘zbekiston, 2017–104b.(.pdf32.5Mb)
3. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik - xalqimiz tiichligi va farovonligiining hayotbaxsh manbai // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – T.:O‘zbekiston, 2017 299 bet
4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild – T. : O‘zbekiston, 2017. -592 b. (.pdf 170Mb)
5. Mirziyoyev Sh.M. BMT bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi nutq. - // Xalq so‘zi. 2017 yil 20 sentabr
6. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va forovon hayot – pirovard maqsadimiz»./«Ozod va obod Vatan, erkin va forovon hayot – pirovard maqsadimiz».8-jild/- T.; O‘zbekiston. 2003. 134-bet
7. Karimov I.A.. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari”. T., “O‘zbekiston”, 1997, 189-bet
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Prezident I.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2010 yil 29 yanvar.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartarf etish yo‘llari va choralar. – T.: O‘zbekiston 2009.
10. Azizov X.T., SHirinov J., Bakaev SH. Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, - T.:Akademiya, 2013. – 114 b.
11. Ibratov B.I. Tadbirkorlik (biznes) huquqi . –T.: Moliya, 2001.-218 b.

12. Ibratova F.B. «Ayrim toifadagi qarzdorlar bankrotligining huquqiy muammolari». Monografiya -T.; TDYUI 2012. 405-b.
13. Oqyulov O., Otaxonov F., “Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini mustahkamlash muammolari”.- T., TDYUI 2010, 200-b.
14. Oilaviy tadbirkorlik – mustahkam oila asosi. SH.N.Ro‘zinazarov, Oqyulov O., Babakulov S.B., Burxanxodjaeva V., – Toshkent, -T.:TDYUI, 2012. – 52 b.
15. Tadbirkorlik (biznes) huquqi . Darslik. 1-2 том. SH.N.Ro‘zinazarov va boshqalar. -Toshkent: Konsauditinform, 2002. 3.
16. Rahmonqulov X.R., Azizov X.T. Tadbirkorlik sub’ektlari xususiy mulk huquqining fuqarolik-huquqiy kafolatlari. –T.: 2013. -181 bet.
17. Ro‘zinazarov SH. Tadbirkorlik sub’ektlari mulkiy huquqlarini himoya qilish kafolatlari. // Oliy xo‘jalik sudi axborotnomasi, 2006.11-12.
18. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida – T.: Adolat, 2007. – 466 b.
19. Хозяйственное (предпринимательское) право. Учебник. //под ред. Окюлова О. - Т.: ТГЮИ, 2010. 560 с
20. Xodiyev B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. – T.: TDIU, 2010.
21. Samadov A,N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. -T.: Moliya-iqtisod, 2008.
22. Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2005.
23. Qosimova M.S., Xodiyev B.Y., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 2003.
24. Aniskin Y.P. Organizatsiya i upravleniye malim biznesom: Uchebnoye posobiye. – M.: Finansi i statistika, 2008.
25. “Tadbirkorlik (biznes) huquqi” (darslik).- T.; TDYuU, 2016

## **Internet saytlari**

1. http:// www.businesspravo.ru.
2. http: // [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. http:// [www.inter-mba.ru](http://www.inter-mba.ru)
4. http:// [www.law.uk.edu](http://www.law.uk.edu)
5. http:// [www.legislature.ru](http://www.legislature.ru)
6. hhh www Statiska uz.
7. http: // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. http: // [www.press-service.uzwww.](http://www.press-service.uzwww.)
9. http: // [www.Ziyo.Net](http://www.Ziyo.Net)
10. <http://strategy.gov.uz/>

## 1-Ilova

### Tadbirkorlik faoliyati turlari

**Ishlab  
chiqarish**  
Innovatsion

**Tijorat**  
Savdo

**Moliyaviy**  
Bank

**Konsaltinglar**  
Umumiy  
boshqarish

Ilmiy-texnik

Savdo-xarid

Sug‘urta

Ma’muriy  
boshqaruv

|                           |  |                        |  |            |                         |
|---------------------------|--|------------------------|--|------------|-------------------------|
| Tovar ishlab<br>chiqarish |  | Savdo-<br>vositachilik |  | Auditorlik | Moliyaviy<br>boshqarish |
|---------------------------|--|------------------------|--|------------|-------------------------|

|                      |  |                    |  |          |                          |
|----------------------|--|--------------------|--|----------|--------------------------|
| Xizmat<br>ko‘rsatish |  | Tovar<br>birjalari |  | Lizingli | Xodimlarni<br>boshqarish |
|----------------------|--|--------------------|--|----------|--------------------------|

|   |  |  |                   |  |           |
|---|--|--|-------------------|--|-----------|
| Iste’mol<br>tovarlari ishlab<br>chiqarish |  |  | Fond<br>birjalari |  | Marketing |
|---|--|--|-------------------|--|-----------|

|                                    |  |  |  |                                  |  |
|------------------------------------|--|--|--|----------------------------------|--|
| te’mol<br>xizmatlari<br>ko‘rsatish |  |  |  | Ishlab ichqarishni<br>boshqarish |  |
| Axborot                            |  |  |  | Axborot<br>texnologiyasi         |  |

## 2-ilova

